

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.M.Shermatova, G.A.Karaboyeva	
Zamonaviy axborot texnologiyalarining yosh avlod tarbiyasiga psixologik ta'siri tahlili.....	141
I.T.Tojiboev, Z.X.Komilova	
Professional ta'lif muassasalarida dasturlash tillarini o'qitishning zamonaviy usullari	145
Z.X.Mamatova	
Zamonaviy informatika mashg'ulotlariga qo'yilayotgan metodik talablarni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik omillari	151
A.Y.Axmedov, Z.F.Sherqo'ziyeva	
Ta'lif samaradorligini oshirishda innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	156
B.B.Djalalov	
Interfaol o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion kompetentlikni shakllantirishning pedagogik tizimi.....	160
B.S.Siddiqov	
O'quvchilarda aksiologik kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari.....	165
D.A.Yo'idosheva	
Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish zamonav iy pedagogikada zaruriyat sifatida	170
I.I.Tuychiyeva, Z.Axunova	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompitentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati....	174
J.U.Tojiboyev	
Talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	178
M.O.Karimova, X.X.Tojiyev	
Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lif o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish muammosi	183
Н.А.Абдуллаева	
Педагогические проблемы формирования исследовательских компетенций будущих учителей.....	190
N.S.Temirov	
Oliy o'quv yurtida mustaqil ta'lif orqali talabalar bilimini oshirishning zamonaviy yondashuvlari	194
O.F.Hamrayeva	
Talabalarda irodaviy sifatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	199
Sh.O.Aripov	
Xorij olimlarining o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash jarayonida gender yondashuvni tadbiq etishga doir fikirlari	204
Sh.N.Mehmonaliyev	
Koshifiyning adabiy-pedagogik merosi va uning yoshlarning ma'naviy ahloqiy qadriyatlar tizimiga ta'siri.....	208
U.Q.Maqsudov	
Modernizatsiyalash sharoitlarida talabalarning kasbiy dunyoqarashni shakllantirish imkoniyatlari.....	212
O.N.Fozilova	
Maktabgacha ta'lifda xorijiy mamlakatlar tajribasi (Buyuk Britaniya)	217
M.E.Xallokova	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'zin texnologiyasining faollashtiruvchi omillari.....	222
I.S.Soliyev	
Maktabgacha ta'lif tarbiyachilarining axborot kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy omillari	227
F.O.'O'rino	
Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish zarurati va ijtimoiy ahamiyati	232
R.Y.O'rino	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining intellektual faolligini oshirishning integrativ texnologiyalari.....	238



УО'К: 458.14.014.13

**BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING INTELLEKTUAL FAOLLIGINI
OSHIRISHNING INTEGRATIV TEXNOLOGIYALARI**

**ИНТЕГРАТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ
КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА**

**INTEGRATIVE TECHNOLOGIES FOR INCREASING THE INTELLECTUAL ACTIVITY OF
FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS**

O'rinnov Rustambek Yoqubjonovich
Farg'onan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Zamonaviy yuqori malakali mutaxassisiga ijtimoiy buyurtma ko'p hollarda shaxs va faoliyatning sifatli tavsifnomalariga qo'yilgan ob'ektiv talablar bilan belgilanadi. Aynan ta'lif sifatini takomillashtirish davlatning ijtimoiy va iqtisodiy siyosatini amalga oshirish sur'ati, sifati va usullariga ahamiyatlari ts'ir ko'rsatmoqda. Bu vazifani hal qilishning ma'lum murakkabliklari mavjud bo'lib, ular fan va texnologiyalarning rivojlanish darajasi bilan ta'lif muassasalarini bitiruvchilarining intellektual rivojlanishi darajasi o'tasidagi tafovut, ya'ni uzilishdan iborat bo'lib, hozirda ushbu muammo bir qator mualifflar tomonidan faol muhokama qilinmoqda.

Ushbu maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining intellektual faolligini oshirishning integrativ texnologiyalari mazmuni va amaliy asoslari bayon qilingan.

Аннотация

Социальный уровень на современного высококвалифицированного специалиста определяется в большинстве случаев объективными требованиями к качественным характеристикам личности и деятельности. Именно повышение качества образования оказывает существенное влияние на скорость, качество и методы реализации социальной и экономической политики государства. В решении этой задачи имеются определенные трудности, заключающиеся в разрыве между уровнем развития науки и техники и уровнем интеллектуального развития выпускников образовательных учреждений, то есть разобщенности, и эта проблема в настоящее время активно обсуждается рядом авторов.

В данной статье описано содержание и практическая основа интегративных технологий повышения интеллектуальной активности будущих учителей английского языка.

Abstract

The social order for a modern highly qualified specialist is determined in most cases by objective requirements for quality descriptions of the person and activity. It is the improvement of the quality of education that has a significant impact on the speed, quality and methods of implementing the social and economic policy of the state. There are certain difficulties in solving this task, which consist in the gap between the level of development of science and technology and the level of intellectual development of graduates of educational institutions, that is, a disconnection, and this problem is currently being actively discussed by a number of authors.

This article describes the content and practical basis of integrative technologies for increasing the intellectual activity of future English language teachers.

Kalit so'zlar: intellektuallik, intellektual kompetentlik, intellektual faollik, ijtimoiy intellekt, aql-idrok, anglash, tushunish, fahmlash, intellektual resurs, motivasion-qadriyatga yo'naltirilganlik, intellektual madaniyat.

Ключевые слова: интеллектуальность, интеллектуальная компетентность, интеллектуальная деятельность, социальный интеллект, здравый смысл, осведомленность, понимание, понимание, интеллектуальный ресурс, мотивационно-ценностная ориентация, интеллектуальная культура.

Key words: intellectuality, intellectual competence, intellectual activity, social intelligence, common sense, awareness, comprehension, understanding, intellectual resource, motivational-value orientation, intellectual culture.

KIRISH

Bugungi kunda intellektual kompetentlikni rivojlantirishning muhim omili sifatida talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish, izlanuvchan, ijodkor va tadqiqotchilik kompetensiyalariga ega mutaxassis shaxsini tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi. Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy, Angliya kabi rivojlangan davlatlarda talabalarning mustaqil bilish faoliyatini tashkil etish, aniq maqsadni belgilash asosida o'quv natijalarini kafolatlash, ta'liming

PEDAGOGIKA

izlanishli, kommunikativ, ijodiy, loyihaviy faoliyat, gipermatnli navigasiya kabi shakllarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, talabalarning samarali o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishning akmedidaktik tamoyillarining amal qilish mexanizmlari, axborot-ta'limiyy muhitni takomillashtirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Zamonaviy yuqori malakali mutaxassisiga ijtimoiy buyurtma ko'p hollarda shaxs va faoliyatning sifatlari tavsifnomalariga qo'yilgan obyektiv talablar bilan belgilanadi. Aynan ta'lim sifatini takomillashtirish davlatning ijtimoiy va iqtisodiy siyosatini amalgaoshirish sur'ati, sifati va usullariga ahamiyatlari ta'sir ko'rsatmoqda.

Intellektual faollikni shakllantirish muammosi pedagoglar, psixologlar tomonidan turli nuqtai nazarda ko'rib chiqiladi. Pedagogika fanida talabalarning intellektualligini faollashtirish va faoliyat muammolarini tadqiq etish chuqr tarixiy ildizga ega.

Pedagogik lug'atlar va ma'lumotnomalarda "intellektual faoliy" – talabalarning ta'lim jarayoni va mazmuniga munosabati, bilim va malakalarni samarali egallahsga intilishi, ma'naviy-irodaviy kuchlarini maqsadga erishishga safarbar qilishi, shuningdek maqsadga erishilgan taqdirda estetik lazzat olishida namoyon bo'ladigan o'quv faoliyati sifatidir, deb ta'rif berilgan.

Bo'lajak o'qituvchilarning psixologik holatini izchil tahlil qilishdan keyin mayjud ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o'rganish asosida bo'lajak o'qituvchilarning intellektual faolligini uchta tipiga zamonaviy nom berdik.

Birinchi tipi – katta, keng ko'lamli. Mazkur tipga bilim olish va ko'nikma, malakalarni shakllantirishga motivasiyasi yuqori va diqqatini jamlash qobiliyati hamda intellektual faolligi yuqori bo'lgan talabalar kiradi. Ulardagi intellektual faolligi nafaqat o'z ixtisosligi bo'yicha shakllanadi, balki kasbiy ta'lim chegarasidan tashqariga ham chiqadi. Ular o'z dunyoqarashlarini kengaytirish, kasbiy o'sish ustida ishlaydilar, hamma yangi, o'rganilmagan narsalar ularni qiziqtiradi.

Ularning qiziquvchanligi, har tomonlama bilish, o'rganish va rivojlanishiga bo'lgan ulkan istak o'quv dasturlari doirasidan chiqib ketadi.

Ikkinci tipi – o'rtacha. Bu tipga o'rta darajadagi intellektual faollikka ega bo'lgan, ya'ni o'z ixtisosligi doirasida kasbiy jihatdan chuqr ta'lim oladigan talabaga taalluqlidir. Talaba o'zining kasbiy yo'nalganligidan tashqari boshqa hech narsa bilan qiziqmaydi. Cheklangan ixtisoslashgan kasbiy intellektual faoliyati mazkur tipga xosdir.

Uchinchi tipi – kichik. Bu tipga o'quv dasturlari doirasida bilimlarni o'zlashtirish va malaka egallahni ko'zda tutadigan faollikka ega talabalar kiradi. Faoliyatning bu turi eng oz faol, eng kam ijodkor xarakteriga ega.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Biz intellektual faollikning psixologik xususiyatlarini ham aniqladik. Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual faollikning shakllanishi, shaxs bo'lishiga o'qituvchilar, ota-onalar va talabalarning o'zlarini munosabatlari ulkan ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilar tomonidan ijobji munosabat o'rnatish va yoqimli muhit yaratish, hamkorlik munosabatlari, o'zaro tushunish va hurmat qilish talabalarning bilishga oid, kognitiv faoliyatining, gnostik, ijodiy va tashkilotchilik qobiliyatlarining rivojlanishiga ko'maklashadi.

Ta'kidlash lozimki, bo'lajak o'qituvchilarda intellektual faollikni shakllantirishning samaradorligi tashqi va ichki omillarga bog'liq. Intellektual faollikni shakllanishining tashqi omillari – bu pedagogik muhit va jarayonning (ta'lim muassasalari, axborot-kommunikasion texnologiyalar va h.k.) xususiyatlari. Ichki omillar – talabalar, o'qituvchilar, ota-onalarning individual psixofiziologik xususiyatlari va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlardir. Tadqiqot natijalariga ko'ra ota-onalar, o'qituvchilar va bolalar o'rtasidagi munosabat maqsadlar birligi, do'stona tushunish va qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ota-onalar farzandlarining sifatlari bilim, malaka va ko'nikmalarni olishidan manfaatdorligi asosiga qurilishi lozimligi to'g'risidagi xulosa shakllantirildi.

O'qituvchining kompetentli va savodli motivasiyasi ko'magida talabalarda intellektual faollikning birinchi tipi shakllanadi. Tarbiya masalalariga ongli va maqsadli yondashgan ota-onalarning farzandlarida dunyoqarashi keng shakllantirilgan, qadriyatlar to'g'ri singdirilgan bo'lib, mustaqil o'qib, bilim orttirish ham yaxshi rivojlangan bo'ladi. Majburlovsiz o'qiydigan talaba intellektual faollikning birinchi tipiga ega bo'ladi.

Talabalar bilan avtoritar va past emosional aloqadagi pedagogik jarayon vaqtida pedagog talabalarni "cheklangan malaka"ni shakllantiruvchi, mustaqil va uy ishlari bilan yuklashning vosita va usullarini qo'llagan sharoitda o'qitilayotgan predmet bo'yicha o'ta katta hajmdagi ma'lumot

bersa, talabalarda tegishli ravishda bilish faoliyatining ikkinchi turi shakllanadi. Intellektual faoliyatining ikkinchi tipi bo'lgan talabalarda ham mustaqil o'qib bilim orttirish yaxshi rivojlangan, biroq talaba majburan o'qiydi. Talabalar bilan passiv emosional muloqot bo'lganida, pedagog tomonidan qiziqarsiz, kam darajadagi ma'lumotlar to'plami bilan dars jarayonini olib borilganda, pedagog bilan muloqotni, masalan, baho, nazorat ishlarni qabul qilganda, bir bosqichdan boshqasiga o'tish vositasi sifatida ko'rirlganda, talabalarda intellektual faoliyatining uchinchi tipi shakllanadi.

Bu esa, o'z navbatida, talabaga bo'lg'usi kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish, kelgusida mustaqil o'qib, bilimlarni orttirish imkonini beradi. intellektual faoliyatni shakllantirish ta'lim jarayonining tegishli vazifalarini amalga oshirish yo'li bilan ta'minlanadi.

Ta'lim jarayoni va intellektual faoliyatining o'zaro Aloqadorligi

№	Ta'lim jarayoni vazifalari	Intellektual faoliyat komponentlari
	Talabalarni tizimli bilimlar bilan ta'minlash	Kognitiv
	Kasbiy malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish	Harakatli
	Kasbiy refleksiv qobiliyatni shakllantirish	Shaxsiy: irodaviy , emosional, motivasion

Tadqiqotimizning asosini E.Bransuik bo'yicha yangi kiritilgan qonun-qoidalarning dastlabki tipi, ya'ni yangi va original tipdag'i ta'limiy g'oyalalar va amaliy harakatlar tashkil etadi.

Ma'ruza mashg'ulotlari (ma'ruzalar) davomida biz o'zimiz ishlab chiqqan va o'quv jarayoniga mustaqil tatbiq etgan, biridan boshqasiga o'tuvchi turli usullar bo'lgan "Slider" texnologiyalarni qo'lladik. "Slider" atamasi ingliz tilidan sirg'anish, o'tish degan ma'nolarni bildiradi. Slider-texnologiyaning mohiyati ta'limning an'anaviy shakllaridan noan'anaviysiga o'tishi va ortga qaytishidan iborat. Texnologiyaning nomi ham shundan, ya'ni ta'limning an'anaviy va innovasion shakllari o'rtaida ohista sirg'alishdan kelib chiqqan.

Ma'ruzaviy mashg'ulotlarda talabalarga ta'limda motivasiya berish uchun ularning diqqatini jamlash maqsadida biz darsni bir tondagi ma'ruzalar o'rniga yangi mavzuga taalluqli yo'naltiruvchi savollar bilan boshladik. Har bir ma'ruzaviy mashg'ulot yangi mavzuni qamrab oluvchi savollarni, shuningdek, zamonaviy yoshlarni qiziqtiruvchi yangi mavzular doirasidan chiqmaydigan dolzarb savollarni inobatga oлган holda qurilgan. Ya'ni ma'ruzaviy mashg'ulotlar savol-javob shaklidagi faol yondashuv tarzida olib borildi. Ta'lim jarayonida bu texnologiyalardan foydalanishda talabalarda mavzuga qiziqishning ortishi, diqqatni jamlash hisobiga motivasion komponent oshadi, pedagog tomonidan berilgan savollarga javoblarni ifodalashda lug'at zahirasi rivojlanadi, to'ladi va h.k.

Seminar mashg'ulotlarida biz "Sendvich" texnologiyasidan foydalandik. Bu darsni tashkillashtirish shakli ham bir necha usullardan tashkil topadi.

Seminar mashg'ulotlarining asosiy mohiyati shundan iboratki, seminar mashg'ulotlari istisno tarzida talabalar tomonidan olib boriladi. Har bir seminarda bir juft talabalar o'qituvchi sifatida darsni (ssenariyli) olib borish uchun predmetning ishchi dasturidan o'zlariga mavzu tanlaydilar. Talabalar mashg'ulotga pedagog sifatida tayyorlanadilar. Har bir dars yangi juftlikdagi talabalar tomonidan olib boriladi. Ancha jur'atli va bilimlarini amaliyatda sinab ko'rmoqchi bo'lgan talabalar darsni yolg'iz olib boradilar. Ular o'tilgan mavzular bo'yicha mantiqiy topshiriqlar, ta'lim muassasalari hamda pedagogik jarayonda tez-tez uchraydigan muammoli vaziyatlar, savollar, vazifalarni tayyorlaydilar. Ya'ni, auditoriya mashg'ulotida talabalar yangi o'tilgan mavzuni amaliy o'zlashtirishga o'tadilar. Darsni tashkil etishida, bu yangi shakl orqali talabalarda mustaqil bilish faoliyatiga qiziqishlari ahamiyatlari tarzda ortadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida intellektual kompetentlikni rivojlantirish jarayoniga integrativ yondashuvni qo'llash va unda axborotlarni qayta ishslash texnologiyasidan foydalanish pedagogik soha bo'yicha o'ziga xos innovasion yondashuv bo'lib, uning yordamida tadqiqot jarayonida ijobiy sifat o'zgarishi va yuqori samaradorlikka erishiladi.

Integrativ yondashuv ta'lim-tarbiya jarayonlariga kompleks va tizimli yondashuv, tizimiyl tahlil tadqiqot metodlarini joriy etishda va bilishning induksiya hamda deduksiya metodlaridan foydalanishda qo'l keladi.

PEDAGOGIKA

O'qitish mazmunini integrasiyasi bu o'zaro ta'sir, aloqa, bir-biriga o'tish jarayoni va natijalari, bilim sintezi, faoliyat turlari va iqtidori (qobiliyati) yaxlit bir tizim deb tushunilishidir. Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual madaniyatni rivojlantirish o'quv fanlarini, shu jumladan ijtimoiy fanlarni tabiiy fanlar bilan tabiiy fanlarni aniq fanlar bilan, aniq fanlarni ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bog'lab o'qitishni talab qiladi.

Hozirgi paytda pedagogikada integrasion jarayoni amalga oshirish bosqichlarining qat'iy tuzilmasi: integrasiyalashning maqsadlarini aniqlash, integrasiyalash ob'ektlarini saralash, tizim hosil qiladigan omillarini aniqlash, kursning yangi tuzilmasini, mazmunini qayta ishlash, samaradarlikni natijalarini nazorat qilish sharoitlarini qamrab oladi.

Integrasion pedagogik faoliyatning tuzilmali – morfolgik ko'rsatkichlari: (paradigmalaridan tashqari) darajasi, komponentlari, yo'nalishi, turi, shakllarini, shuningdek amalga oshirish vositalarini saralash, mazkur holatda integrasion pedagogik faoliyatning darajalari –metologik, nazariy yoki amaliy darajalari aniqlovchi sifatida namoyon bo'ladi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida intellektual kompetentlik — bu turli darajadagi murakkablikdagi muammolarni qo'yish va samarali hal qilish imkoniyatini ta'minlaydigan ichki sifat, shaxsiy tajribani faollashtirish asosida kasbiy muammolarni hal qilish uchun o'z intellektual qobiliyatlar va shaxsiy fazilatlarini safarbar qilish istagidir.

Bo'lajak o'qituvchilarning intellektual qobiliyatini aql-zakovatni va perceptiv-analitik qobiliyatlarni aks ettiruvchi omillar bilan ifodalanishi mumkin: axborotni yig'ish, axborotni qayta ishlash, og'zaki vamantiqiy fikrlash, abstraktsiya qilish va tizimlashtirish qobiliyati, vizual va samarali fikrlash, amaliy muammolarni tezda hal qilish qobiliyati va konseptual moslashuvchanlik.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning intellektual faolligi o'z ichiga quyidagi vazifalarni qamrab oladi:

1. Nazariy bilimlarga ijobjiy munosabatni shakllantirish, bilish jarayoni sub'ekt uchun qimmatli bo'lishi zarur.

2. Nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, ilmiy dunyoqarashni, talabaning ijodiy tafakkurini shakllantirishi zarur, bu esa, o'z navbatida, ilmiy va o'quv ma'lumot oqimida mo'ljal olish malakasini rivojlantiradi, bilimlar hajmini oshiradi.

3. Talabaning o'qishga oid faoliyatini, ya'ni o'qish ko'nikmasini shakllantirish. Intellektual faoliyatini shakllantirish jarayonida quyidagi: o'quv-kommunikativ; o'quv-tashkiliy; o'quv-intellektual; o'quv-axborot guruhlari ajratiladigan ko'nikmalar ham rivojlanadi.

4. Talabaning mustaqil tarzda kasbiy bilim orttirishga motivasion, kognitiv va tashkiliy tayyorligi shakllantiriladi.

5. O'z shaxsi, faoliyati va uning natijalarini refleksiv baho berish qobiliyatini rivojlantirish.

Tajriba-sinov ishlari vaqtida innovasiyalarni qo'llash natijalari asosida quyidagilarni ishonchlilik bilan aytish mumkin:

- talabalar darsga astoydil tayyorlanadilar, bu, o'z navbatida, mas'uliyatni rivojlantiradi;

- yangi ma'lumot bilan mustaqil ishlashni boshlaydilar – bu, modomiki, ma'lumotni tahlil qilarkan va sintezlarkan, bosh miya faoliyatini mashq qildiradi;

- notiqlik nutqni rivojlantiradi – bu talabalarning asosiy qismida yuzaga keladigan "olomondan qo'rqish" bilan kurashishda yordamlashadi, o'z bilimiga ishonchni rivojlantiradi. Bu esa, o'z navbatida, dars mavzusini o'rganish uchun kuchli motivasiyadir;

- kasbiy malakalar shakllanadi – avvalo, bu kasbiy malakalarni shakllantirish va rivojlantirish, guruhni to'g'ri nazorat va monitoring qilishga o'rganish imkoniyatini beradigan o'z guruhi, psixologik qulaylik;

- tanqidiy fikrlash – har bir darsda sodir bo'ladigan vaziyatlar va ulardan birmuncha to'g'ri chiqish ko'nikmasi shakllanadi, talabalarga ularning kasbiy faoliyatida kutiladigan murakkab hayotiy vaziyatlarda mo'ljal olishda yordamlashadi;

- o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini tasdiqlash kabi sifatlar darsga tayyorlanish vaqtida birmuncha kuchli namoyon bo'lishni boshlaydi. Bizning eksperimental darslarimizda, tadqiqotimiz davomida talabalar orasida amaliy usul – anketalash usuli bilan so'rovnama o'tkazdir. Ta'llimga bizning innovasion yondashuvlarni (tadqiqot muallif tomonidan ishlab chiqilgan) joriy qilish talabalarda bilish faoliyatini shakllantirishda an'anaviy shakllarni qo'llashga qaraganda anchagina ijobjiy natija beradi. Bilish faoliyatining shakllanganlik darajasini aniqlash uchun turli-tuman usullardan foydalandik.

Tadqiqotimiz jarayonida intellektual faoliyat komponentlarini shakllantirish usullariga alohida e'tibor qaratildi.

Ta'limning muammoli usullari. Intellektuallikni talab qiluvchi faoliyatda insonning aqliy imkoniyatlarini rivojlantirish ta'minlanadi.

1. Muammoli bayon qilish usuli. Shu ma'noda ma'ruzalarda qachonki o'qituvchi muammolarni qo'ya bilsa, muammoli vazifalarni tashkil eta olsa, o'quv materialini muammoli bayon qilish katta imkoniyatlarni taqdim etadi. O'quv materialini muammoli bayon qilishda talabalar oldida nafaqat tadqiqotning yakuniy natijalarini, balki ko'rib chiqilayotgan muammoning echimini izlash mantig'ini ham ochib beradi. Izlash, izlanish usulining maqsadi talabalarning muammolar va muammoli vazifalarni hal qilish yuzasidan izlanuvchan faoliyatini tashkillashtirishdan iborat. Bunday vazifalar tizimining qurilishi o'qituvchiga bo'lajak o'qituvchilarda intellektual faoliyatning zaruriy sifatlarini shakllantirishga olib keladigan dasturlash imkonini beradi. O'qituvchi izlash usulidan foydalangan holatda izlanishni yo'naltiradi, muammolarni ketma — ket qo'yadi, ziddiyatni ifodalaydi, muammoli savollarni yaratadi, topshiriqni bajarishga o'zi qadam qo'yadi, talabalar esa topshiriqni bajarishning har bir bo'g'inida yuzaga keluvchi muammolar qismining echimini mustaqil izlaydilar.

Izlash, izlanish usullaridan foydalanganda, talabalar muammoli vazifaga tegishli echimidagi yuzaga keladigan murakkabliklarni uni kichik vazifalarga ajratish yo'li bilan bartaraf qilishga o'rganadilar.

Ta'limning dialogli usullari zamonaviy ta'limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Dialogli usullar (debat, disskusiya, savol-javoblar va boshqa) talabalarda, berilgan muammoli vazifalar yoki savollarga javobini, qurqmasdan, ochiq oydin bayon qilishiga undaydi. Shuningdek, mashg'ulotlarda biz ishlab chiqilgan zamonaviy texnologiyalarimizdan foydalandik: Slider – muammoli bayon qilish, ilgari o'tib ketuvchi topshiriqlar usullari; Sandvich – tayanch xarita, tadqiqotchilik, evristik usullar, case-study.

Intellektual faollikni shakllanishiga ko'maklashuvchi topshiriqlar tasnifi quyidagi belgilari: intellektual faoliyati xarakteri; murakkablik darajasi; topshiriqni bajarishda ishtirok etuvchi talabalar miqdori; bajarish shakllari; bajarishda mustaqillik darajasi bo'yicha amalga oshiriladi. Axborot-reseptiv xarakterdagagi vazifalar o'quv ma'lumotini idrok etish, anglash, eslab qolishga yo'naltirilgan; reproduktiv xarakterdagagi vazifalar talabalar tomonidan faoliyat usullarining tipik va variativ, ammo oson taniladigan vaziyatlar bo'yicha amalga oshirish tajribasini egallahsga va ijodiy faoliyatni tashkillashtirishga yo'naltirilgan.

Pedagogik fanlarni o'rganishda oliy ta'lim talabalarida intellektual faolligini shakllantirish jarayonining natijaviyligi auditoriya mashg'ulotlarida bo'lganidek, auditoriyadan tashqaridagi vaqtida ham foydalaniladigan maxsus ishlab chiqilgan vazifalar tizimining mantiqiyligi va maqsadga muvofiqligi bilan ta'minlanadi.

XULOSA

Tajriba-sinov ishlarini o'tkazish jarayonida sezildiki, talabalarda intellektual faollikni shakllanganligi, ta'lim va yangi bilim olishga motivasiya past darajadadir. Tajriba guruhida o'quv jarayonini tashkil etishning yangi shakllari orqali talabalarda ta'limga motivasiya, o'qishga istakning namoyon bo'lishi kuzatildi, bu intellektual faoliyati shakllanishidan dalolat beradi. Oliy ta'lim talabalarining intellektual faolligi ajratilgan xususiyatlarini inobatga olgan holda tadqiqotda talabaning bilish faoliyatini mazmunini birmuncha yaxlit va to'liq aks ettiruvchi sifatida uning kognitiv, harakatli va shaxsiy komponentlarini ajratdik. Bunda shaxsiy komponent emosional, irodaviy, motivasion tarkibiy qismlarini, shuningdek, refleksiyaga qobiliyatni o'z ichiga oladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning intellektual faoliyatining tarkibiy qismlari bilan ko'rib chiqilayotgan tizimlar o'tasidagi quyidagi aloqalarni ajratish mumkin: o'zaro harakatlanish aloqalari, ya'ni kognitiv, shaxsiy, harakatli komponentlarning aloqalari; kognitiv komponentga kiruvchi bilimlarda namoyon bo'ladigan harakatli komponentga kiruvchi malakalarni shakllantirish uchun asos hisoblanadigan oqibat aloqalari; bo'lajak o'qituvchilarning intellektual faoliyatidada bir holatdan boshqasiga o'tadigan komponentlarning bevosita o'zaro harakatlanishi yo'li bilan amalga oshiriladigan o'zgarishlar aloqalari; ko'rib chiqilayotgan tizimlarning real hayotiy faoliyatini ta'minlovchi harakatlanish aloqalari. Harakatlanish aloqalari bilan birlashadigan bilish faoliyati komponentlari birgalikda muayyan vazifalarni amalga oshiradilar; o'zida funksional aloqalarning turli-tumanligini aks ettiruvchi va tizim hosil qiluvchi hisoblanadigan boshqaruv aloqalari. Boshqaruv

PEDAGOGIKA

aloqalarini muayyan dasturlar asosida quriladigan va uni amalga oshirish usulini o'zida aks ettiradigan aloqalar sifatida tavsiflash mumkin.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida intellektual kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan birgalikdagi o'quv-bilish faoliyatining umumiyligini xususiyati talabaning pozisiyasini o'zgartirish, o'rganilgan bilimlarga bo'lgan munosabatlarni o'zgartirish, uni sotib olish vositalari va usullari, qadriyat munosabatlarining o'zgarishi, semantik ko'rsatmalar, ta'limot maqsadlari va ta'lim ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va munosabatlarning o'zgarishida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilganda, bo'lajak o'qituvchilarning intellektual madaniyati ularning intellektual faolligi va bilishga to'g'ri yo'naltirilgan intellektual faoliyatining xosilasi sifatida namoyon bo'ladi. Talabalarning intellektual salohiyati innovation asosda tashkil etilgan ilmiy-intellektual pedagogik muhit va shart-sharoitlar asosida o'sib boradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Сергеев А. Интеллектуальный капитал менеджмента. Теория и тенденции в России. – Saarbrücken: LAP LAMBERT Academic Publishing GmbH & Co. KG, 2012. –С.316.
2. Старовойтенко Н. Современная психология: формы интеллектуальной жизни. Уч.пособ.для ВУЗов. – Москва: Академический проект БЦ, 2001. –С.544.
3. Алексеева И.Ю., Никитина Е.А. Интеллект и технологии. Монография. –Москва: Проспект, 2015. – С.107.
4. Аминов М. Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик. (Электрон манба) / tmetod.uz/wp-content/uploads/innovation-talim.
5. Кулматов Б.Г. Инглиз тилини инновацион технологиялар ёрдамида ўқитишда CEFR мезонларидан фойдаланишнинг назарий асосларини такомиллаштириш. Пед. фан. бўй. фал. д-ри (PhD) дисс. ... автореф. –Т.: 2018. – 45 б
6. Urinova F., Azizmatova Z., Fazliddinova . Didactic foundations for forming the professional competence of the future teacher. //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – т. 3. – №. 4 part 4. – с. 197-202.
7. O'ranova F. Innovative reforms in the modern preschool education system //Science and innovation. – 2023. – т. 2. – №. B2. – с. 557-561.
8. Uljayevna U. F. The activity of developmental centers in the formation of children's abilities /Sscience and innovation.– 2022.– т.1 №. B2. – с. 107-110.
9. Urinov Rustambek Yokubjonovich. INNOVATIVE COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 7. UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337. С -508- 512.
10. <https://ia800902.us.archive.org/0/items/maxwaltersgerman00waltrich/maxwaltersgerman00waltrich.pdf>
11. https://en.wikipedia.org/wiki/List_of_richest_people_in_the_world.